

## ТАБИЙ VA TEXNOGEN OFATLLARNI OLDINI OLISH TIZIMINING TASHKIL ETISH MASALALARI

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti*

*“Xalqaro huquq” fakulteti 3-kurs  
talabasi Reyimboyeva Munavvar  
Sodiqjon qizi*

*Ilmiy rahbar: “Xalqaro huquq va  
ommaviy huquq fanlari” kafedrasi katta  
o‘qituvchisi Tashev Farruh  
Muzaffarovich*

### ANNOTATSIYA

Hozirgi globallashuv davrida iqlim o‘zgarishlari, tabiiy va texnogen ofatlar va urushlar soni keskin ortmoqda. Bularga iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq, geologik (zilzila, vulqon otilishi, yer va tosh ko‘chkilari, o‘pirilishi), meteorologik (kuchli shamol va jala, do‘l, qor ko‘chkisi, qurg‘oqchilik) va gidrologik (sel va suv toshqinlari) kabi ofatlar, tabiiy yong‘inlar (dasht va o‘rmon yong‘inlari), xavfli epidemiyalarning tarqalishi, radiaktiv va kimyoviy moddalarning ajralib chiqishi va boshqa xavflar kiradi. Ushbu favqulotda holatlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) muhim davlat organi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Favqulodda vaziyat, geologik, metreorologik, gidrologik, radiaktiv, zaharli va kimyoviy modda, epidemiya, epizootiyalar, epifitotiyalar, xalqaro hamkorlik, tabiiy ofat, texnogen ofat, avariya, konvensiya, bitim,

### ANNOTATION

In the current era of globalization, the number of climate changes, natural and man-made disasters and armed conflicts is increasing significantly. These include disasters related to climate change such as geological hazards (earthquakes, volcanic eruptions, landslides, rockfalls and collapses), meteorological hazards (strong winds, heavy rainfall, hail, avalanches and drought) and hydrological hazards (mudflows and floods). In addition, natural fires (steppe and forest fires), the spread of dangerous epidemics, the release of radioactive and chemical substances and other risks are also among the major threats. In such emergency situations, The Ministry of Emergency situations play an important role as a key state authority responsible for prevention, response and mitigation of disasters.

**Key words:** Emergency situations, geological hazards, meteorological hazards, hydrological hazards, radioactive substances, toxic and chemical substances, epidemic, epizootic, epiphytotic, international cooperation, natural disaster, man-made disaster, accident, convention, agreement.

Fayqulodda vaziyatlar ro‘y berish manbaiga qarab tabiiy xususiyatli hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarga bo‘linadi.

Odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talofatlarga, odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar **tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.**

Odamlarning qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talofatlarga, odamlar hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan sanoatdagi, tarnsportdagi avariylalar va boshqa texnogen avariylalar, yong‘inlar (portlashlar), kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli, kimyoviy, radiaktiv hamda xavfli biologik moddalarning tarqalishi yoxud tarqalish xavfi bilan bog‘liq avariylalar, binolar va inshootlarning to‘satdan qulashi, to‘g‘onlar va tozalash inshootlarning to‘satdan buzilishi va odamlar hayot

faoliyatini ta'minlashda ahamiyatga ega kommunikatsiya tizimlaridagi avariyaalar **texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.**

Favqulodda vaziyatlar jabrlangan odamlarning soni, ko'lami, yetkazilgan moddiy zararlar va boshqa oqibatlariga qarab **lokal, mahalliy, respublika darajasidagi hamda transchegaraviy** bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd qilingan xavfli favqulotda vaziyatlarda, ularni oldini olish, xavflarni bartaraf etish va tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 4-martdagi "Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-sonli farmoni qabul qilingan<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqarolarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagicha:

- Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, aholi hayoti, salomatligi va xavfsizligini va chegara va hududlarni, xususan, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish;
- Urush va tinchlik davrida bevosita xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan yoki xavf tug'ilganda aholini tezkor xabardor qilish, favqulodda holatlarni e'lon qilish va xavf-xatarlarni kamaytirish va o'z vaqtida samarali hal qilish bo'yicha keng ko'lamli vazifalarni bajarish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish;
- Vazirlik, idoralar, milliy va mahalliy darajadagi hokimliklarning favqulodda vaziyatlar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boorish;
- Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va shunday vaziyatlar vujudga kelganda, ularni bartaraf qilishga doir chora-tadbirlar va dasturlarni ishlab chiqish;
- Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnik resurslarning davlat favqulodda zaxira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish;

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-173169>

- Shuningdek, xalqaro miqyosdagi hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va favqulodda holatlarda samarali yordamni ta‘minlash va boshqalar<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining yuqoridagi kabi vakolatlari va huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-143-sonli qonunida mustahkamlangan.

FVV tashkil etilganidan buyon, favqulotda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida samarali va keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni o‘rnatish maqsadida Birlashgan Davlatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni o‘rnatgan va bir qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

“Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi”ga a‘zo davlatlar o‘rtasida 1992-yil 22-yanvarda “Tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi kelishuv tuzilgan<sup>3</sup>. Kelishuvdan asosiy maqsad favqulodda vaziyatlarda tezkor hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf to‘g‘risida tezkor ma‘lumotlar berish, uni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish uchun zarur choralarni ko‘rish, shuningdek, zaruriy holatlarda qo‘shimcha kuch va vositalarni jalb qilish yoki yordam ko‘rsatish, qutqaruvchilar va mutaxassislarni o‘qitish va malakasini oshirish, doimiy favqulodda holatlar yuzasidan monitoringlar o‘tkazib borish va boshqa muhim yo‘nalishlar belgilandi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotining a‘zosi hisoblanadi, ShHT a‘zo davlatlari (Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston) o‘rtasida favqulodda vaziyatlarda birgalikda harakat qilish bo‘yicha bitimlari ham mavjud. Moskvada 2005-yil 26-oktyabrda ShHTga a‘zo davlatlar

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-403672>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-2899322>

favqulodda vaziyatlarda bir-birlariga yordam ko'rsatish maqsadida "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga ko'maklashishda o'zaro hamkorlik haqida"gi bitimni imzolashgan<sup>4</sup>. Kelishuvda hamkorlik masalalari va tabiiy va texnogen ofatlarni oldini olish choralari belgilangan.

2005-yildagi Tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi kelishuv asosida, O'zbekiston Respublikasida 1999-yil 20-avgustda "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-824-I-sonli qonun qabul qilingan<sup>5</sup>. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-790-sonli yangi tahrirdagi qonuni qabul qilingan.

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga - O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Favqulodda vaziyatlar vaziri rahbarlik qiladi. Vazirlik idoralar va tashkilotlarda - ularning rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, tuman va shaharlarda - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda – ularning hokimlari tomonidan amalga oshiriladi va favqulodda vaziyatlar ham, shu rahbarlar tomonidan e'lon qilinadi. Favqulodda vaziyatning turiga qarab, muayyan hudud, shu hududni favqulodda vaziyatda deb e'lon qilgan rahbar tomonidan muayyan hududlar favqulodda zona deb e'lon qilinadi va chegaralar belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimini boshqarish quyidagi darajalarda:

Respublika darajasida – maxsus vakolatli davlat organi (FVV);

Mahalliy darajada – maxsus vakolatli davlat organining hududiy bo'linmalari;

<sup>4</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-2069864>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-68564?ONDATE=25.12.2019&action=compare>

Mahalliy darajada – maxsus vakolatli davlat organining hududiy bo‘linmalari;

Obyekt darajasida – obyekt rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu davlat tizimlar 3 xil darajadagi rejimda faoliyat olib boriladi:

- 1) Kundalik rejim – odatda muayyan hududda, obyektida favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lmaganda;
- 2) Yuqori tayyorgarlik rejimi – favqulodda vaziyatlar ro‘y xavfi mavjudligi aniq ko‘rinib yoxud sezilib turgan vaziyatlarda;
- 3) Favqulodda vaziyat rejimi – favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan yoki favqulodda vaziyatlar davridagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar. Yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlar vaziyatning jiddiyligi, og‘irligi va ko‘lami, oqibatlariga qarab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, hokimlarning va shuningdek, tegishli obyekt rahbarlarining qarori bilan joriy etiladi va vaziyatlarga rahbarlik qilishadi va doimiy monitoring yuritishadi. Doimiy ravishda vaziyatlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Bosh vaziriga hisobot beradi.

Favqulodda vaziyatlar yuz berganda, ularni bartaraf qilish uchun moddiy va moliyaviy resurslar zaxiralari, oldindan shu kabi tig‘iz vaziyatlarda foydalanish uchun oldindan har bir tashkilotda yaratiladi. Shuningdek, maxsus ekspertiza xizmati ham mavjud bo‘lib, oldindan yuz berishi mumkin bo‘lgan va pragnoz qilish imkoni mavjud bo‘lgan holatlar, ularni tabiiy, iqtisodiy va bosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf qiluvchi kuchlarga muayyan turiga qarab, ixtisoslashgan vakolatli davlat organlari va tashkilotlari ma’sul hisoblanadi. Bularga:

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Mahallalari uyushmasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va boshqalar.

Umuman olib qaraganda, har qanday sohada xalqaro hamkorlik muhim xalqaro institut hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarda ham O‘zbekiston FVV tizimining imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir. Xorijiy davlatlar bilan ilmiy va amaliy tajriba va moddiy-texnik bilimlar almashish natijasida qutqaruvchi va mutaxassislarning ko‘nikmalari oshib, aholiga yordam ko‘rsatish darajasi va sifati ham yaxshilanishiga erishiladi. Bu hamkorliklar uchun doimiy zamonaviy texnik resurs, investitsiya va zamonaviy yondashuvlar talab etiladi. Shu munosabat bilan bir nechta takliflarni berib o‘tamiz:

- 1) Favqulodda tabiiy va texnogen vaziyatlarda, aholini evakuatsiya qilish tez va oson bo‘lishi uchun maxsus jihozlangan yer osti favqulodda xonalar qurilishi lozim;
- 2) Aholini qisqa muddatda xavflardan ogohlantirish, evakuatsiya qilish, tibbiy yordam ko‘rsatish uchun har bir mahallada ko‘ngilli mahalla

faollari, jismoniy jihatdan layoqatli, talabalar, shifokar va sportchilardan iborat qutqaruv guruhlarini tuzilishi lozim;

3) Aholini tabiiy va texnogen ofatlarga jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlash uchun yilda kamida 1 marotaba amaliy mashg'ulot dasturlari o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi;

4) Har bir aholi yashash hududlarida, qutqaruv jihozlarini ta'minlash va buning tekshiruvini doimiy yuritish lozim.

5) Shuningdek, FVV markazi tarkibida dronlar bilan ishlash va monitoring qilish uchun kichik maxsus bo'lim faoliyatini tashkil etish lozim, bu doimiy nazoratni olib boorish, sel va jalalarni, turli ofatlarni oldindan pragnoz qilish imkonini beradi, agar bu tekshiruv tizimida dronlardan foydalanilsa, oldin bu faoliyat maxsus xodimlar tomonidan amalga oshirilganiga nisbatan, soha xodimlariga qulaylik va ularning xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini beradi<sup>6</sup>.

Xulosa qilsak, FVVning faoliyat ko'lami va soha xodimlari doimiy ravishda o'z malaka va bilimlarini rivojlantirib borishmoqda va eng so'nggi texnologiya va dasturlar kirib kelyapti. Hozirgi, globallashuv davrda, ularning faoliyatini sun'iy intellekt texnologiyalarining yangi turlari va ixtirolar olib kirish orqali yanada samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Favqulotda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi O'RQ <https://lex.uz/ru/docs/-173169>;

2. "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi O'RQ <https://lex.uz/ru/docs/-403672>;

<sup>6</sup> <https://srcyrl.agr-drone.com/info/benefits-of-drones-in-construction-and-agricul-100298080.html>

3. “Tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi kelishuv <https://lex.uz/docs/-2899322;>
4. “Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga ko‘maklashishda o‘zaro hamkorlik haqida”gi bitim <https://lex.uz/ru/docs/-2069864;>
5. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ <https://lex.uz/ru/docs/-68564?ONDATE=25.12.2019&action=compare;>
6. Qurilish, qishloq xo‘jaligi va qutqaruv xizmatlarida dronlarning afzalliklari <https://srcyrl.agr-drone.com/info/benefits-of-drones-in-construction-and-agricul-100298080.html> .